

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xudayberganov G‘ayrat Quranboyevich

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21736782>

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo‘lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Fanlararo bilimlar integratsiyasi, kreativ topshiriqlar, muammoli ta’lim hamda refleksiv yondashuvlarning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiyaning bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, fanlararo integratsiya, bo‘lajak pedagog, kreativ kompetensiya, didaktika

Аннотация: В данных тезисах раскрываются дидактические возможности междисциплинарной интеграции в развитии креативного мышления у будущих педагогов. Анализируется педагогическое значение интеграции междисциплинарных знаний, креативных заданий, проблемного обучения и рефлексивного подхода. Результаты исследования свидетельствуют об эффективности междисциплинарной интеграции в развитии креативных компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: креативное мышление, междисциплинарная интеграция, будущий педагог, креативная компетенция, дидактика

Abstract: This thesis explores the didactic potential of interdisciplinary integration in fostering creative thinking among prospective teachers. It analyzes the pedagogical significance of interdisciplinary knowledge integration, creative tasks, problem-based learning, and reflective approaches. The research findings

demonstrate the effectiveness of interdisciplinary integration in enhancing the creative competencies of future teachers.

Keywords: *creative thinking, interdisciplinary integration, prospective teacher, creative competence, didactics*

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi pedagoglardan kreativ fikrlashni talab etmoqda. Shu sababli bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Fanlararo integratsiya turli fanlarga oid bilimlarni yagona pedagogik maqsad sari yo'naltirish imkonini beradi. Natijada talabalar bilimlarni alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida o'zlashtiradi, bu esa muammolarga kreativ yondashish hamda innovatsion pedagogik yechimlar ishlab chiqish uchun zarur sharoit yaratadi. Abstsessial bog'liqlik bilimlarning gorizontal integratsiyasini, ordinal bog'liqlik esa kreativ kompetensiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ifodalaydi. Mazkur yondashuv bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning metodik asosini tashkil etadi [2;4].

Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda loyiha metodi, kreativ keyslar, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar va reflektiv topshiriqlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, muqobil yechimlar ishlab chiqish hamda innovatsion pedagogik faoliyatni shakllantirish imkonini beradi [5;6].

Loyiha metodi bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni amaliy mahsulot yaratish jarayoni bilan bog'laydi. Loyiha faoliyatida talaba muammoni mustaqil tanlash, maqsadni shakllantirish, zarur resurslarni aniqlash, optimal yechim modelini ishlab chiqish, yakuniy natijani taqdim etish va o'z faoliyatini reflektiv baholash bosqichlarini bosib o'tadi. Xususan, "Bir muammo – bir yechim", "Kreativ

g'oyalar akademiyasi", "Raqamli pedagog portfeli" hamda "Kelajak o'qituvchisi modeli" kabi amaliy loyihalarning joriy etilishi bo'lajak pedagoglarning innovatsion tafakkurini, metodik ijodkorligini va kasbiy-deontologik mas'uliyatini tizimli ravishda rivojlantiradi. Loyiha metodi orqali kreativ fikrlash g'oya ishlab chiqish bilan cheklanmaydi, aniq pedagogik mahsulot yaratish, uni asoslash va amaliyotga tatbiq etish bosqichlariga ko'tariladi.

Refleksiv suhbat bo'lajak pedagogning o'z fikriy harakati, qarori va pedagogik pozitsiyasini anglashga xizmat qiladi. Bu usul orqali talaba "Men muammoni qanday ko'rdim?", "Qaysi sabablarni asosiy deb bildim?", "Nega aynan shu yechimni tanladim?", "Qarorimning kuchli va zaif tomonlari nimada?", "Keyingi faoliyatda nimani o'zgartirishim kerak?" kabi savollar bilan ishlaydi. Refleksiv suhbat kreativ fikrlashni boshqariladigan jarayonga aylantiradi. Talaba o'z qarorini qayta ko'rib chiqadi, xatolarni rivojlanish manbai sifatida qabul qiladi, tajribasini tahlil qiladi va keyingi pedagogik faoliyat uchun yangi xulosa ishlab chiqadi.

Mazkur usullar tizimida har bir metod alohida vazifani bajaradi, lekin ular o'zaro bog'langan holda qo'llanganda kreativ fikrlashning to'laqonli rivojlanishini ta'minlaydi. Muammoli ta'lim tafakkurni uyg'otadi, debat kommunikativ dalillashni kuchaytiradi, keys-stadi kasbiy vaziyatni tahlil qilishga o'rgatadi, sinkveyn mazmunni umumlashtirish va obrazli ifodalashni rivojlantiradi, kreativ trening fikriy moslashuvchanlikni oshiradi, loyiha metodi ijodiy g'oyani amaliy mahsulotga aylantiradi, refleksiv suhbat esa o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu ketma-ketlik ordinal rivojlanish mantig'iga mos keladi: anglash, tahlil, izlanish, qaror, amaliyot va refleksiya bosqichlari izchil bog'lanadi [2;4].

Integrativ bog'liqlik mazkur metodlarning mazmuniy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Har bir metod pedagogika, psixologiya, didaktika, metodika hamda raqamli ta'lim bilan integratsiyalashganda, bo'lajak pedagog muayyan vaziyatni turli fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, keys-stadi

(case-study) metodi psixologik tahlil, didaktik va metodik yechim hamda kommunikativ strategiyani birlashtiradi; loyiha metodi pedagogik muammoni raqamli vositalar, ijodiy mahsulot va amaliy-metodik yechimlar bilan bog'laydi; debat esa pedagogik argumentatsiya, nutq madaniyati va tanqidiy fikrlashni uyg'unlashtiradi. Bunday fanlararo bog'liqlik kreativ fikrlashni tor metodik faoliyat emas, keng kasbiy-intellektual jarayon sifatida rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali didaktik vositasi hisoblanadi. Uni oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga keng joriy etish pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning samaradorligi ta'lim mazmuni bilan bir qatorda o'qitish metodlari va o'quv muhiti qanday tashkil etilganiga ham bevosita bog'liq. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar turli fanlarga oid bilimlarni yagona pedagogik muammoni hal etishga yo'naltiradi. Bu esa ularning analitik fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi hamda kreativ yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi [2;3;4].

Fanlararo integratsiyaning samaradorligi o'quv topshiriqlarining mazmuniga ham bog'liq. Integrativ topshiriqlar talabalardan bir vaqtning o'zida bir nechta fan doirasidagi bilimlarni qo'llashni, pedagogik vaziyatlarni kompleks tahlil qilishni hamda muqobil yechimlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bunday topshiriqlar reproduktiv fikrlashdan kreativ fikrlashga o'tishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi [3;5].

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ishtirok etgan talabalar mustaqil qaror qabul qilish, kreativ pedagogik g'oyalarni ilgari surish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yuqori natijalarga erishdilar. Ayniqsa, loyiha metodi, kreativ

keysalar va refleksiv tahlil usullarining uyg'un qo'llanilishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirdi [2;6].

Shuningdek, fanlararo integratsiya bo'lajak pedagoglarda kasbiy moslashuvchanlikni ham rivojlantiradi. Zamonaviy pedagog turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lay olishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kreativ ta'lim muhitini yarata olishi lozim. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya asosidagi mashg'ulotlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq [1;2].

Fanlararo integratsiya bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim didaktik omili hisoblanadi. U bilimlarning tizimlilikini ta'minlaydi, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi hamda bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Fanlararo abstraktsial va ordinal bog'liqlik tamoyillariga asoslangan ta'lim jarayoni kreativ kompetensiyalarni izchil shakllantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvni oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni // www.lex.uz.
2. Атаханов Р. А. Диагностике развития математического мышления // Вопросы психологии. -№ 1-2. -1992. -С. 60-67.
3. Мусурмонов А. Дидактические основы межпредметных связей математики и трудового обучения в общеобразовательной школе. Дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. -Т., 1988. -149 с.



4. Rahmatova F.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirish. Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. — ChDPI, 2019. – 131 b.
5. Behing O., Eckel N.L. Making sense out of intuition //Acad. Of Manag Executive. - № 1. -1991. V.5. -P. 46-54.
6. Ярошевский М.Г. Психология творчества и творчество в психологии //Вопросы психологии. -№6. -1985. -С. 8-15.